

## Buxoro viloyatida Asosiy kapitalga investitsiyalar


2025- yil yanvar-sentabr oylari uchun

- I. Barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar
- II. Buxoro viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar
- III. Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar
- IV. Buxoro viloyatida ijtimoiy soha obyektlarini ishga tushirish
- V. Asosiy kapitalga investitsiyalar bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

### I. Barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar

So'nggi besh yildagi asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi dinamikasi shuni ko'rsatmoqdaki, u deyarli 2,0 barobarga ko'paydi, lekin joriy davrda o'tgan yilga nisbatan 7,4 trln so'mga kam investitsiyalar o'zlashtirildi.

Asosiy kapitalga investitsiyalar dinamikasi



So'nggi besh yil ichida o'sish sur'atlarini ko'radigan bo'lsak, ular o'sib borish tendensiyasiga ega bo'lib, 2024- yilda eng yuqori o'sish sur'ati – 149,2 % kuzatilgan bo'lsa, joriy davrda o'sish sur'ati 76,9 %ni tashkil qildi.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi \(choraklik\)](#)

[Asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi \(yillik\)](#)

[Asosiy kapitalga investitsiyalarning o'sish sur'ati \(choraklik\)](#)

[Asosiy kapitalga investitsiyalarning o'sish sur'ati \(yillik\)](#)

Iqtisodiyot va ijtimoiy sohani rivojlantirishga 2025- yil yanvar-sentabr oylarida barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan 29,1 trln so'm asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirildi va bu ko'rsatkich 2024- yilning mos davriga nisbatan 76,9 % ni tashkil etdi.



## Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar

	Hajmi, mlrd so'm	O'sish sur'ati %da	Umumiy hajmga nisbatan, %da	
			2024-y.	2025-y.
<b>Jami</b>	<b>29 145,5</b>	<b>76,9</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<b>Markazlashgan investitsiyalar:</b>	<b>3 748,1</b>	<b>183,8</b>	<b>5,4</b>	<b>12,8</b>
Respublika budjeti	665,1	108,2	1,6	2,3
Moliya vazirligi huzuridagi suv bilan ta'minlash va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi	87,2	3,3 m.	0,1	0,3
Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'lari	-	-	-	-
shu jumladan, mln. AQSh dollarida	-	-	x	x
O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar	2 995,8	2,1 m.	3,7	10,2
shu jumladan, mln. AQSh dollarida	231,9	2,2 m.	x	x
<b>Markazlashmagan investitsiyalar:</b>	<b>25 397,4</b>	<b>70,9</b>	<b>94,6</b>	<b>87,2</b>
Korxonalar mablag'lari	3 248,5	118,8	7,2	11,1
Aholi mablag'lari	2 695,7	111,3	6,3	9,3
To'g'ridan-to'g'ri, boshqa va kafolatlanmagan xorijiy kreditlar	19 253,5	63,2	80,6	66,1
shu jumladan, mln. AQSh dollarida	1 506,0	64,5	x	x
<i>shundan:</i>				
to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar	10 931,9	61,1	47,4	37,5
shu jumladan, mln. AQSh dollarida	861,0	62,6	x	x
Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	199,7	109,7	0,5	0,7

2025- yil yanvar-sentabr oylarida markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan o'zlashtirilgan hajm 3,7 trln so'mni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 183,8 % ni tashkil etdi. Ularning jami asosiy kapitalga investitsiyalar hajmidagi ulushi esa 12,8 % ga yetdi.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Respublika budjeti hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi \(yillik\)](#)

[Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi \(yillik\)](#)

[Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi \(yillik\)](#)

[O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida xorijiy kreditlar hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi \(yillik\)](#)


[Korxonalar mablag'lari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi \(yillik\)](#)

[Tijorat bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi \(yillik\)](#)

[To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi \(yillik\)](#)

[Aholi mablag'lari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi \(yillik\)](#)

### Yillar bo'yicha markazlashgan va markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar ulushi



### Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari bo'yicha tarkibi

	Jami investitsiyalar, mlrd so'm	shu jumladan moliyalashtirish manbalari bo'yicha: ( jamiga nisbatan % da)						
		Respublika budjeti	Korxonalar va tashkilot	Aholi	Xorijiy investitsiya va kredit	Suv bilan ta'minlash va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi	Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi	Tijorat bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lari
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>29 145,5</b>	<b>2,3</b>	<b>11,1</b>	<b>9,3</b>	<b>76,3</b>	<b>0,3</b>	<b>-</b>	<b>0,7</b>
Buxoro sh.	6 247,2	3,7	17,5	4,8	72,9	0,4	-	0,7
Kogon sh.	451,7	2,3	22,1	9,9	65,2	-	-	0,5
Olot tumani	2 165,3	1,8	1,2	11,7	85,3	-	-	0,0
Buxoro tumani	1 865,0	0,8	9,0	12,6	77,2	-	-	0,4
Vobkent tumani	936,0	2,4	4,9	15,4	73,0	3,9	-	0,4
G'ijduvon tumani	2 578,3	2,8	4,0	14,5	75,5	-	-	3,2
Kogon tumani	2 022,1	3,1	15,4	9,9	69,0	1,0	-	1,6
Qorako'l tumani	4 068,0	2,0	8,4	5,6	83,9	0,1	-	0,0
Qorovulbozor tumani	1 383,5	0,1	15,7	2,6	81,6	-	-	-
Peshku tumani	1 122,9	1,3	2,8	21,1	74,8	-	-	0,0
Romitan tumani	4 465,9	1,0	14,4	5,8	78,7	-	-	0,1
Jondor tumani	926,9	6,3	8,6	25,7	58,6	0,1	-	0,7
Shofirkon tumani	912,7	1,4	9,6	16,5	71,3	0,2	-	1,0

## Buxoro viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar

Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibida tog'-kon sanoati yetakchilik qilmoqda. Amalga oshirilayotgan yirik investitsiya loyihalari natijasida ushbu iqtisodiy faoliyat turida jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 7,2 trln so'm yoki jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 24,7 % i o'zlashtirildi.

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar

	Hajmi, mlrd so'm	Umumiy hajmga nisbatan, %da	
		2024-y.	2025-y.
<b>Asosiy kapitalga investitsiyalar – jami</b>	<b>29 145,5</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>Shu jumladan:</i>			
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	2 562,5	2,8	8,8
tog'-kon sanoati	7 170,6	9,4	24,7
Ishlab chiqarish sanoati	5 078,6	28,5	17,4
elektr energiyasi, gaz, bug' va kondensiyalangan havo	4 093,4	35,1	14,0
suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ishvaqayta foydalanish	603,8	0,3	2,1
qurilish	1 336,5	3,9	4,6
ulgurji va chakana savdo, motorli transport vositalari va motosikllarni ta'mirlash	583,5	2,8	2,0
tashish va saqlash	3 332,4	6,2	11,4
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	204,6	2,9	0,7
axborot va aloqa	41,9	0,2	0,1
moliya va sug'urta faoliyati	15,1	0,1	0,1
kasbiy, ilmiy va texnik faoliyat	299,6	0,1	1,0
ta'lim	435,0	0,9	1,5
sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	254,1	0,9	0,9
san'at, ko'ngil ochish va dam olish	52,4	0,2	0,2
turar-joy qurilishiga investitsiyalar	2 752,1	4,6	9,4
Boshqa faoliyat turlari	329,4	1,1	1,1

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar hajmi \(yillik\)](#)

[Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar hajmi \(choraklik\)](#)


## II. Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar

2025- yil yanvar-sentabr oylarida jami 22 249,3 mlrd so'm yoki 1 737,9 mln AQSh dollar xorijiy investitsiya va kreditlar o'zlashtirilgan bo'lsa, ularning hammasi yangi asosiy fondlarni yaratishga qaratilgan.

Hududlar kesimida xorijiy investitsiya va kreditlar, mlrd so'm

	To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar	O'zR kafolati ostida xorijiy kreditlar	Kafolatlanmagan xorijiy investitsiya va kreditlar
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>10 931,9</b>	<b>2 995,8</b>	<b>8 321,6</b>
Buxoro sh.	1 600,3	2 670,5	281,3
Kogon sh.	47,2	54,9	192,6
Olot tumani	1 700,9	17,6	129,2
Buxoro tumani	659,7	174,9	604,9
Vobkent tumani	189,2	7,1	487,0
G'ijduvon tumani	1 924,7	5,4	15,3
Kogon tumani	513,2	57,7	825,1
Qorako'l tumani	1 940,1	-	1 474,4
Qorovulbozor tumani	175,8	-	952,5
Peshku tumani	700,9	-	139,0
Romitan tumani	565,9	-	2 947,3
Jondor tumani	270,5	-	273,0
Shofirkon tumani	643,5	7,7	-

Buxoro viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar hajmi \(yillik\)](#)

[Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar hajmi \(choraklik\)](#)

#### IV. Buxoro viloyatidada ijtimoiy soha obyektlarini ishga tushirish

2025- yil yanvar-sentabr oylarida jami 1 216,0 ming kv.m turar-joylar ishga tushirilib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 102,0 % ni tashkil etdi. Shundan qishloq joylarida 851,1 ming kv.m bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 93,6 % ni tashkil qildi.

Ko'rib chiqilayotgan davrda viloyat bo'yicha 31,4 km. suv tarmog'lari o'tkazilib, 66,3 mlrd so'm investitsiya o'zlashtirilgan.

#### Hududlar kesimida ijtimoiy soha obyektlarini ishga tushirish

	Turar-joylar, ming kv.m	Ulardan: qishloq joylarda ming kv.m	Suv tarmog'i, km	Gaz tarmog'i, km
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>1 216,0</b>	<b>851,1</b>	<b>31,4</b>	<b>-</b>
Buxoro sh.	118,5	-	12,5	-
Kogon sh.	20,9	-	-	-
Olot tumani	135,5	94,6	-	-
Buxoro tumani	118,7	106,8	-	-
Vobkent tumani	61,4	36,3	18,9	-
G'ijduvon tumani	189,2	164,1	-	-
Kogon tumani	104,4	104,4	-	-
Qorako'l tumani	79,0	42,2	-	-
Qorovulbozor tumani	8,0	1,7	-	-
Peshku tumani	105,1	86,1	-	-
Romitan tumani	120,3	97,5	-	-
Jondor tumani	93,4	79,7	-	-
Shofirkon tumani	61,6	37,7	-	-

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Ishga tushirilgan uy-joylarning umumiy maydoni \(yillik\)](#)

[Ishga tushirilgan suv tarmoqlari uzunligi \(jami, yillik\)](#)

[Ishga tushirilgan gaz tarmoqlari uzunligi \(jami, yillik\)](#)

#### V. Asosiy kapitalga investitsiyalar bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

**Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarga** barcha turdagi qurilish ishlariga qilingan xarajatlar; asbob-uskunalarini montaj qilish bo'yicha xarajatlar; mashina, asbob-uskunalar (montaj talab etiladigan va talab etilmaydigan), transport vositalari, jihoz va xo'jalik inventarini sotib olish; boshqa kapital ishlar va xarajatlar kiradi. Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi to'g'risidagi ma'lumotlar, ilgari boshqa tashkilotlarning asosiy fondlarida hisobga olingan asbob-uskunalar, binolar va inshootlar (yoki ularning ehtiyot qismlari)ni sotib olishga qilingan xarajatlarsiz keltirilgan.

**Chet el investitsiyalari** – asosan kelgusida foyda olish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi hududidagi korxonalar va tashkilotlarga kiritilgan chet el kapitali.



**To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar bu** – korxonaga to'liq egalik qiluvchi yoki korxonaga aksionerlik kapitalining 10 % dan kam bo'lmagan qismini nazorat qiluvchi, ya'ni korxonani boshqarishda ishtirok etish huquqi ega bo'lgan, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investor yuridik yoki jismoniy shaxs tomonidan kiritilgan investitsiyalar.

Barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar yangi va import orqali xarid qilingan asosiy vositalarni o'z ichiga oladi. Bularga: ularning boshlang'ich qiymatini oshirishga olib keladigan yangi qurilish, kengaytirish, obyektlarni rekonstruksiya va modernizatsiya qilish uchun ketgan xarajatlar, mashinalar, asbob-uskunalar, transport vositalari, yer holatini yaxshilash uchun xarajatlar, geologik qidiruv ishlariga, asosiy podani shakllantirishga va ko'p yillik o'simliklarni o'tkazishga ketgan xarajatlar kiradi.

Mazkur ko'rsatkichga shuningdek moliyalashtirishining barcha manbalari hisobidan asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hamda texnik va hayriya yordam, "MEN" shartnomalari, ta'sisчилarning yangi asosiy vosita sifatidagi badallari, shuningdek intellektual mulkchilik obyektlariga va intellektual faoliyat mahsulotlariga investitsiyalar kiritiladi.

Metama'lumot uchun havola:

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1865/Asosiy-kapitalga-investitsiyalar.pdf>

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1872/Iqtisodiy-faoliyat-turlarii-boyicha-asosiy-kapitalga-ozlashtirilgan-investitsiyalar.pdf>

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1867/Asosiy-kapitalga-xorijiy-investitsiya-va-kreditlar.pdf>

<b>Tayyorlash uchun mas'ul:</b> Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi	<b>Ijrochi:</b> Sh. Xodjaev 65 223-81-99 (8020)	<b>Manzil:</b> 200100, Buxoro sh., S.Ayniy ko'chasi, 3-uy
--	---	---